



## ARAB TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN ATAMALAR TASNIFI

**Muxtorova Mahdiya Dilmurod qizi**

SamDChTI Sharq tillar fakulteti

Lingvistika (arab tili) yo'nalishi

2-bosqich magistranti

e-mail:mahdiyamuxtorova@gmail.com

+998908431540

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14547820>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-Dekabr 2024 yil

Ma'qullandi: 18- Dekabr 2024 yil

Nashr qilindi: 23- Dekabr 2024 yil

### KEY WORDS

*Atama, izohli lug'at, ma'no o'zgarishlari, turistik atamalar, ilmiy atamalar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan atamalarning tasniflanishi va ularning guruhlariga bo'linishi haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, turizm sohasiga oid atamalar, ilm-fan, madaniyat va ta'lim, diniy, maorif, iqtisod, tibbiyot, harbiy, dehqonchilik, san'at va adabiyotga oid atamalar alohida-alohida tasnif etilib, mazkur atamalarning qo'llanish holati va leksik-semantik ma'nolari tahlil etilgan.*

Arab tilining O'rta Osiyo hududiga kirib kelishi bevosida Islom dini bilan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ham boshqa tillar qatori o'zbek tili tarkibidagi so'zlar, ibora va atamalarning aksariyat qismi ilm-ma'rifat va dinga oid atamalar hisoblanadi. Bu so'zlar lug'at tarkibimizda katta va asosiy o'rinni egallaydi. Chunki o'zbek tili tarkibidagi arab tilidan o'zlashgan atamalarning turli soha va yo'nalishlarda ko'plab uchrashi ma'lum. Bu singari so'zlarning faqat ilm-ma'rifatga va diniy sohadagi leksikasi nisbatan alohida o'rganilgan. Lekin Ijtimoiy-madaniy hayotimizda muhim ro'l o'ynaydigan arab tilidan o'zlashgan so'zlarning alohida soha bo'yicha alohida tasniflanmagan. Biz mazkur maqolada arab tilidan o'zlashgan so'zlarni sohaviy yo'nalishiga ko'ra turkumlab, bu so'zlarning ayrimlarida yuz bergan leksik-semantik ma'nolarini tadqiq etishni maqsad qilganmiz. Quyida ularni turkumlarga ajratamiz:

1. Ilm-fanga, ta'lim va maorifga oid atamalar: bu turdagi atamalar umumiy bo'lib, hayotning barcha sohalarida qo'llaniladi. Ilm-fan, ta'lim so'zlari ham aslida arab tilidan o'zlashgan hisoblanadi. Bundan tashqari kitob, daftar, qalam, maktab, madrasa, amaliyot, dars, davr, vaqt, zamon, tanaffus, takror, dastur, ma'lumot va boshqalar ilm-fanga oid atamalar turiga mansubdir. Quyida ba'zi ilmiy atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

عِلْم – ilm, bilm fan, nazariya. 1. O'qish-o'rganish va tadqiqot qilish bilan egallangan bilm, ko'nikma.

Domlamiz bizga bunday ilmlarni o'rgatmagan.

2. Ish faoliyatining ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi; fan.

Yangi maktablar ochib, jug'rofiya, tarix, hisob kabi ilmlarni ham ta'lim beraylik.

3. Ish faoliyatining maxsus bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka.

مَدْرَسَة – maktab, ushbu so'z qadimda barcha ilmiy ta'lim beradigan muassasalar uchun qo'llanilgan. Hozirgi kunda esa, tor ma'noda faqat diniy-o'rta ta'lim beriladigan ilm dargohi ma'nosida qo'llaniladi.

Madrasa ta'limi 4 yil davom etadi.

دَوْر – davr, aylanish, navbat. 1. Jamiyat taraqqiyotida yoki tabiatda muhim voqea hodisa yuz bergan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma'lum o'tgan vaqt oralig'ini ifodalovchi so'z.

Yurtimiz turli davrlarni boshidan o'tkazdi.

2. Tarixda biror shaxs yoki sulola hukmronligi nomi bilan bog'liq vaqt.lib, arablar orasida qavat, tabaqa degan so'z o'rnida ham ishlatiladi.

Temuriylar davrida mamlakatda ilm-fan, madaniyat, ma'rifat gullab yashnadi.

3. Kishini omadi kelib, ishi yurishgan payt ma'nosini ham anglatadi.

Hozir o'qiganlarning davri.

Davr so'zining ham arab tilida bir necha boshqa ma'nolari bor. Masalan, pog'ona, qavat kabi.

الخامس الدور في الشقة

2. Huquqiy sohaga oid atamalar: davlat, idora, jumhuriyat, muxolif, jamoat, majlis, viloyat, shirkat, hokim, hukumat, huquq, vazir, fuqaro, noib, hudud, tasarruf muassasa, muxtor, murojaat va boshqalar huquq sohasiga oid atamalar turiga mansubdir. Quyida ba'zi huquqiy sohaga oid atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

مَعْرِفَة – maorif, bilish, ilm va ma'rifat so'zlari bilan bir ma'noda qo'llaniluvchi iboradir.

مُخْتَار – muxtor, tanlangan, saylangan. 1. Biror ish qilish huquqi bo'lgan.

Qatar davlatining muxtor elchisi yurtimizga tashrif buyurdi.

2. Avtonom.

Turkiston Muxtoriyati juda qisqa davr hukm surdi, lekin xalqimizni jasorati va shijoatini ko'rsatdi.

مُؤَسَّسَة – muassasa, tashkilot, korxonona, idora. Biror bir xo'jalik yoki savdo-sotiq, ta'limga oid sahoni boshqaruvchi tashkilot.

Chekka hududlarda ham ilmiy ta'lim muassalarining soni ortib bormoqda.

وَيْلَايَة – viloyat, davlatning ma'lum qismlarga bo'lingan shakli.

O'zbekiston Respublikasi 12 viloyatdan iborat.

"Shahri Samarqanddir, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba bila munga dast topmag'on uchun baldayi mahfuza derlar".

3. Tibbiyotga oid atamalar. Tabib, tib, shifoxona, shifo, davo va boshqalar tibbiyotga oid atamalar turiga mansubdir. Quyida ba'zi tibbiyotga oid atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

طَبِيب – tabib, tibbiyot, davolash bilan shug'ullanuvchi kishi.

Sotiboldi kasalni o'qitdi – bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi.

دَوَاء – davo, kasallik yoki biror bir darsga shifo bo'luvchi narsa.

Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

طَب – tib, davolash sohasi.

Tib ilmi hayotdagi zaruriy ilmlardan hisoblanadi.

عِلَّة – kassallik, illat.

Yoshlarning ma'naviy olamiga katta xavf solayotgan illatlardan biri internet qaramligidir.

4. San'at va adabiyotga oid atamalar: adib, adabiyot, she'r, shoir, san'at, sajj, ilhom, muallif, tashbeh, tajnis, noshir, falsafa va boshqalar san'at va adabiyotga oid atamalar turiga mansubdir. Quyida ba'zi tibbiyotga oid atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

شِعْر – she'r, yozuvchilarning nazmiy asari, badiiy adabiyotdagi janr.

Yurtim senga she'r bittim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo.

Shoirlar bor o'z yurtin butun,

Olam aro atagan tanho.

فلسفة – falsafa, 1. Tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan.

Falsafa hayotni anglashga olib boruvchi sohadir.

2. Shaxsiy tajriba, fikr, o'y.

Faqat oldinga intilish hayot falsafasidir.

مؤلف – muallif, yaratuvchi, ijodkor. Biror asar, loyiha kabilarni yaratgan shaxs.

Muallif o'z asarlari bilan o'quvchilar ko'nglidan joy olgan.

أبجد – abjad, qadimgi arab alifbosi tarkibidagi harflardan tuzilgan va har qaysi harfning birdan minggacha son qiymati mavjud bo'ladi.

Hamma narsa bolalar uchun yangi, qiziq edi. Chunki ular abjaddan, haftiyakdan boshqa bo'lak kitob ko'rmagan.

5. Dinga oid atamalar. ularning aksariyati ibodatlar, diniy marosimlar, diniy ahkomlarga oid bo'lib ular ham o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi. Masalan: Qur'onga oid atamalar: tajvid, mad, jahr, idg'om, fihqga oid atamalar: idda, mazhab mut'a, hadiy, tafsir (Qur'oni Karim sharhi)ga oid atamalar: aqidaga oid atamalar, hadisga oid atamalar: munqoti', mudroj, tasavvuf (tariqat)ga oid atamalar: murshid, solik, vird, tavhid, da'vatchilikka oid atamalar va boshqalar diniy atamalar turiga mansubdir. Quyida ba'zi diniy atamalarni izohlab o'tamiz.

Masalan:

زكاة – zakot, moli nisobga yetgan musulmon kishi, shu molidan chiqarishi lozim bo'lan moddiy ibodat turi. Islomning 4- rukni hisoblanadi.

تجويد – tajvid, Qur'oni Karimni to'g'ri o'qish ya'ni arabcha harflarni maxraji va sifatlari bilan joy-joyiga qo'yib, to'g'ri talaffuz qilish haqidagi yo'nalish, fan turi.

متصل – muttasil bu hadis turlaridan bir tur bo'lib, sanadi ya'ni hadisni rivoyat qiluvchilarni nomi uzilishlarsiz tog'ridan to'g'ri Rosululloh Sollallohu allayhi vasallamga ulanadigan, yetib boraigan hadisga nisbatan aytiladi. Ushbu muttasil so'zi hadisdan boshqa sohalarda ham ayni davomiy, ketma-ket uzluksiz degan ma'nolarda qo'llaniladi.

ورد – vird, bu atama ham umumiyroq ma'noda bo'lib, bajarilishi qat'iy farz yoki vojib darajasida ema ya'ni murshid tasavvuf tariqati ustoz tomonidan yo'lgan chiqqan solikka har kuni bajarilishi uchun tayinlab berilgan vazilar hisoblanadi.

مخرج – maxraj, harflarning hosil bo'lish o'rni yoki chiqadigan joyi.

جهاد – jihod, harakat qilish, kurash. Musulmonlarni Islom dinining tarqalishi yo'lidagi to'siqlarni bartaraf qilishga qaratilgan yurishlar.

مجاهد – mujohid, jihod qiluvchi. Dinni yoyish yo'lida kurashuvchi.

Jihod so'zi faqat qurolli urush manosida kelmaydi, balki manaviy kurashni ham ifodalaydi.

Imom Termiziy Fazola ibn Abiddan rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: جَاهِدْ مَنْ الْمُجَاهِدُ:

نَفْسَهُ

O'z nafsu-havosiga qarshi kurashgan kishidir, deyilgan inson o'z nafsini yengib yo'lga solmasdan oldin, qanday qilib boshqalarni yo'lga sola oladi.

شهيد – shahid, Allohning roziligi yo'lida jonini fido qilgan, iymon-e'tiqodi va nomusini saqlash yo'lida zolim dushman qo'lida qatl qilingan kishilarga Alloh tomonidan beriladigan darajadir.

Bugungi kunda ba'zi buzg'unchilar o'zini portlatib, o'zini ham, tinch aholini ham o'ldirgan kishilarni shahid deb atashmoqda. Misol tarzida Rosululloh sollallohu alayhi vasallam

davrlaridagi g'azotlardagi holatlarni keltirishadi. Ammo ushbu rivoyatlarda dushman bilan yuzma-yuz turgan paytda jangga kirgandan keyin halok bo'lishni rivoyatlarning zohiri ko'rsatib turibdi. Bu rivoyatlarning birortasi tinch aholi ustiga portlovchi modda bilan kirib borishga qiyosiy dalil bo'lolmaydi. Hatto sahobalar biror yurtga jang uchun borgan bo'lsalar ham, bir kishi azon aytganini eshitib qolsalar jangsiz ortlariga qaytishgan. G'azotlarda qurolsiz kishilar, qariyalar, bolalar, ayollar va ibodatxonalaridagi rohiblarga umuman tegishmagan.

Hozirda yuqoridagi kabi ayrim atamalarning ma'nolarini o'zgarish yoki ulardan boshqacha ma'nolarda foydalanish orqali butun olam tinchligiga xavf solayotgan urush va fitnalar yuzaga kelmoqda. Bu esa barchamizni ogohlikka undaydi.

6. Madaniyatga oid atamalar. An'ana, xalq, qabila, millat, din, urf-odat, tijorat, taqlid, iqtisod, siyosat, talab, ziyoli, ta'rif, aloqa, , asbob, bino, imorat, ovqat, fil, hasharot, inson, oila, va boshqalar madaniyatga oid atamalar turiga mansubdir. Quyida ba'zi tibbiyotga oid atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

تَقْلِيدٌ – taqlid, ergashish, biror shaxsga turli xil fe'l yoki hatti harakatda ergashish, o'xshashlikka harakat qilish.

قَبِيلَةٌ – qabila, urug'.

عِلَاقَةٌ – aloqa, munosabat.

عَنْعَنَةٌ – nasldan naslga o'tuvchi qoida. Hayotda qaror topgan yoki topayotgan udum, urf-odat va boshqa amallar.

7. Dehqonchilikka oid atamalar. xom ashyo, ziroatchilik, aholi, mahsulot, hosil, iqlim, muhit, mintaqa, mo'tadil, maydon, vodi, sahro, masofa, hodisa, tabiat, samo, olmos va boshqalar dehqonchilikka oid atamalar turiga mansubdir. Quyida ba'zi dehqonchilikka oid atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

حَاصِلٌ – hosil, meva.

زِرَاعَةٌ – ziroat, natija, hosil yoki meva.

مُحِيطٌ – muhit, bu so'zning asl arabcha ma'nosi okean, yoki o'ralgan narsa deganidir. Okean ya'ni suv hamma narsani o'rab olganidek muhit ham ma'lum bir sharoitga nisbatan qo'llaniladi.

خَامٌ أَشْيَاءٌ – xom ashyo, biror bir mahsulotni tayyorlashda kerak bo'ladigan narsa va mahsulotlar. Ushbu atama o'zbek tilida birlik ma'noni ifodalasa, arab tilida esa, ko'plik ma'noni ifodalaydi.

8. Harbiy va vatanparvarlikka oid atamalar: harbiy, vatan, admiral (amir al bahr), askar, asliha, davlat, maxfiy, hujum, himoya, mudofaa, josus, xizmat va boshqalar harbiy va vatanparvarlikka oid atamalar turiga mansubdir. Quyida ba'zi harbiy va vatanparvarlikka oid atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

عَسْكَرٌ – askar, harbiy qismda xizmat qiluvchi shaxs.

أَصْلِحَةٌ – asliha, bu arabcha silahun qurol-aslaha so'zining ko'pligi hisoblanadi. O'zbek tilida bu so'z birlikda qo'llaniladi.

جَسُوسٌ – josus, biror bir jamiyat yoki ma'lum shaxslar orasida yuruvchi maxfiy ish ko'ruvchi shaxs.

مُدَافَعَةٌ – mudofaa, himoya qilish.

9. Turizm oid atamalar: sayr, sayohat, sayyoh, makon, do'kon, tijorat, rihlat, vaqt, ziyoratchi, olam, va boshqalar turizmga oid atamalar turiga mansubdir. Quyida ba'zi turizmga oid atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

سَيْرٌ – piyoda yurish, osuda yerda aylanib tomosha qilib yurish, orom olish.

Tongda sayr qilish sog'liq uchun foydali.

سَيَاحَةٌ – sayohat, safar qilish, turizm.

O'qishim davomida yurtimizdagi ko'plab viloyatlarga sayohat qildim.

سَيَّاحٌ – sayohatchi, turist. Ushbu so'z arab tilida ko'plik shaklda foydalaniladi. Bizning tilda esa, birlik shaklda ishlatiladi.

Har yili yurtimizga dunyoning turli mintaqalaridan sayyohlar tashrif buyuradi.

زِيَارَةٌ – ziyorat, tashrif, tabarruk joylarga safar qilish. 1. Muqaddas joylarga tashrif buyurish.

Bolalar, bugun Imom Buxoriy qabrini ziyorat qilishga boramiz.

2. Hurmat yoki rasmiylik yuzasidan keksa, tabarruk kishilar huzuriga tashrif.

Bobomning yoshlari yuzga yaqinlashgan. Shu sababli har kuni ko'plab kishilar ularning ziyoratiga kelishadi.

10. So'zlashuv nutqida qo'llaniladigan so'zlar: salom-alik, assalomu alaykum, vaqt, soat, hisob, va boshqalar so'zlashuv nutqiga oid atamalar turiga mansubdir. Quyida ba'zi so'zlashuv nutqiga oid atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

النَّاسُ أَيُّهَا – ayyuhannos, 1. ey odamlar degan ma'nodagi undov so'z bo'lib, olamonga nisbatan qarata qilingan xitobni ifodalaydi. Lekin so'zlashuvda shovqin-suron, hayqiriq, dod-faryod ma'nosida qo'llaniladi.

الْعَاقِبَةُ عَلَى – alaloqibat, oxiri, oqibatda degan ma'nolarni anglatadi. Arab tilida ikki so'zdan tuzilgan so'z birikmasi bizning tilda esa, bir so'z shaklida qo'llanadi.

الْكُحُولُ – alkuhul, spirt, alkagol ya'ni spirtli ichimliklar nomi.

عَنْقَاءُ – afsonaviy qush, samandar. Anqoning urug'i yoki tuxumi shaklida juda kamyob narsalar uchun ishlatiladi.

Hozirda bir sohani mahkam tutib unda mutaxassis bo'ladigan yoshlar xuddi anqoning urug'i.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. "O'zbekiston" qasidasi
2. Abulla Qahhor. Bemor. 1936
3. Farmonova Mashhura Bo'riqulova. Lug'atlardagi diniy atama va iboralarning morfologik xususiyatlari. PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH. Vol. 14 No. 1 (2023)
4. Mirkarim Osim Ibn Sino qissasi
5. Murtazoyev Valijon, "الشروق" ("Ash-Shuruq", Misr), "البلاد" ("Al-Bilad", Saudiya Arabistoni), "الأخبار" ("Al-Akhaabar", Livan), "اليوم أخبار" ("Axbaar ul-yavm", Jazoir) gazetalari sarlavhalarining grammatik xususiyatlari tahlili, FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, vol. 3, n6, 2024, pp. 122-125
6. V.X. Murtazoyev, "Misr matbuotining paydo bo'lishi tarixi xususida". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 3, n12, 2023, pp. 523-528.
7. Muxtorova Mahdiya. Arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashga diniy atamalar. BMI, SamDChTI, 2023
8. Oybek. Tanlangan asarlar
9. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 tomlik. – T., 2006.
10. Saidova Sitora Sayfiddin qizi. Arab tilidan o'zlashgan atamalarning lug'aviy-ma'naviy xususiyatlari. "Shart tillarini o'qitishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy amaliy

konferensiya 07.2022

11. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma.



INNOVATIVE  
ACADEMY